

ALISHER NAVOIY VA UNING ASARLARINING TARIXIY AHAMIYATI

*Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti 3- bosqich talabasi
Bozarova Rayhona Elyorbek qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy hayoti va ijodi, uning badiiy merosi haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Bolalik va yoshlik chog'laridan muhim davlat arboblari va allomalar orasida bo'lganligi bois, Navoiy teran fikrli komil inson bo'lib yetishdi. Bugungi kunda, shoir muhim siyosiy o'zgarishlar davrida yashab, tarixga o'zining munosib hissasini qo'shgan betakror shaxs sifatida e'tirof etiladi.

XV asrda yashab ijod qilgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hijriy 844-yil ramazon oyining 17-kuni (milodiy 1441-yil 9-fevral)da Hirotida tavallud topgan. Hirot shahri XV asrning birinchi yarmida Amir Temur asos solgan buyuk saltanatning ikkinchi poytaxti, Temurning kichik o'g'li Shohruh Mirzoning tasarrufidagi yirik markazlardan biri edi. Alisher tug'ilib o'sgan xonadon Temuriylar saroyiga avvaldan do'stona munosabatda bo'lib, mamlakatda yuqori nufuzga ega edi. Bo'lg'usi shoirning otasi G'iyosiddin Muhammad farzandining talim olishiga jiddiy e'tibor qaratardi. Alisherning she'riyatdagi dastlabki ustozlari Mir Sayyid Qobuliy va Muhammad Ali G'aribiylardir.¹

1447-yilda Shohruh Mirzo vafot etgach, Temuriy shahzodalar o'rtasida toj-u taxt uchun siyosiy kurashlar boshlandi. Mamlakatdagi aholi avjiga chiqayotgan ichki ziddiyatlar oqibatida o'zga yurtlarga ketishga majbur bolishdi. Yosh shoirning oilasi ham, hamma qatori vatanni tark etishdi. Shohruhning nabirasi Abulqosim Bobur 1452-yilda Hirot taxtiga o'tirgach, Alisherning otasini Sabzavorga hokim etib tayinlaydi. Lekin oradan ko'p o'tmay, G'iyosiddin Kichkina dunyodan ko'z yumdi. Bu paytda Alisher endigina 12 yoshda edi. Abulqosim Bobur Alisher va uning maktabdosh do'sti Husaynni o'z tarbiyasiga oldi, 1456-yili esa o'zi bilan Mashhadga olib ketdi. Keyinchalik Husayn Boyqaro sipohiylik yo'lini tanladi, Alisher esa zamonaning "malik ul-kalom"i Mavlono Lutfiy tahsini va hayratiga sazovor bo'lgan iste'dod egasi bo'lib yetishdi. 1466–1468-yillari Alisherning umri, asosan, Samarqandda kechdi. Sulton Husayn Boyqaro Hirotni egallaganda, Alisher Navoiy 28 yoshli mukammal bilimlar sohibi, yurtga taniqli shoir va tajribali davlat arbobi darajasiga yetishgan edi.

1469-yilda Husayn Bayqaro hukmdor bo'lgach, Xurosondagi saroyda muhrdor etib tayinlanadi. Navoiyning Sulton Husayn oldidagi birinchi buyuk xizmati Hirotidagi qo'zg'olon harakatini soliqlar hisobiga bostirish edi. Bu topshiriqni muvaffaqiyatli ado etgandan song u muhrdor vazifasini amir Shayhim Suheyliga topshirib, oliy martabali davlat arbobi sifatida o'z faoliyatini davom ettirdi. 1472-1490-yilda devonbegi

¹ R.Murtazayeva „O'zbekiston tarixi". Toshkent – 2005.238-b

lavozimida faoliyat yuritgan. Bu davr mobaynida ham Navoiy mamlakatda poraxorlikka qarshi bo'lgan. U 1487-yildan boshlab Astrobodga hokim etib tayinlangan, lekin o'n besh yildan so'ng poytaxtdagi o'z vazifasiga qaytgan. 1489-yilda Navoiy Sayyid Hasan Ardasherining vafotidan qattiq qayg'uga tushib, devon bekligini tark etib, Husayn Bayqaroga xizmat qila boshlaydi. Husayn Boyqaro 1490-yilda chiqargan farmoni bilan hammaga shoirga hurmat-ehtiroom ko'rsatishni buyurib, do'stiga qanchalik ahamiyat berganligini ko'rsatdi.²

1480-yildan boshlab, Navoiy o'zining nodir asarlarini yozishga kirishdi. 1481-yilda «Chil Hadis» va «Vaqfiya» nomli asarlarini, 1485-yilda esa «Nizomul Javohir» va «Tarixi Anbiyo va Hukamo» shuningdek «Tarix-i mulki ajam» nomli tarixiy asarlarini yozdi. U 1483- 1485-yillarda «Hamsa» nomli asarini yozib tugatgan 1491-1492-yillarda Munshaot asarini yozdi. Uning «Hamsatu'l-Mutahayyirin» asari 1492-yili vafot etgan Abdurahmon Jomiyning qayg'usi bilan yozilgan. 1497-yilda saroy fitnalari natijasida Boyqaroning o'g'li Badiuzzamon va nabirasi Mirzo Mehmet bilan munosabatlari noto'g'ri farmon tufayli o'ldirilgan. Bu chalkashliklarni tuzatishga uringan Navoiy bir vaqtning o'zida yozishdan ham chetda qolmagan va 1498-yili «Lison-ut Tayr», 1499-yili «Muhokamat-ul Lug'atayn» va «Siroj-ul Muslimin», 1500-yili «Mahbub-ul qulubi»ni yozgan.³ Navoiy o'zining mashhur va qimmatli asarlaridan biri bo'lgan Muhokamat-ul Lugotaynda turk tilining fors tilidan ko'ra boyroq ekanligini tushuntirgan. Yurtni avvalgi tartibiga qaytarishga urinishi chog'ida, salomatligi yomonlashgan Navoiy, 1500-yil 31-dekabrda mamlakatga qaytgan Husayn Boyqaroning etagini o'pib, yiqilib, uch kun ichida vafot etdi. Qudsiya masjidi yoniga qurilgan qabrga dafn etilgan. Alisher Navoiy davlat ishlarida biron marta ham maosh olmagan va Hirot me'morchiligiga munosib hissa qo'shgan.

Hazrat Navoiy nafaqat davlat arbobi, adabiyot, din va tarixga oid bebaho asarlar ham yaratgan. She'riyat va adabiyotga qiziqishi bolaligidan shakllangan bolib, yozgan g'azal va she'rlari ustozlarini hayratga soladi. U davrning mashhur shoirlari, davlat arboblari va olimlari bilan o'rnatgan mustahkam do'stligi uning kelajakda davlat boshqaruviga oid asarlar yaratishida bevosita poydevor bo'ladi. Ilk asarlarini fors tilida yozgan Alisher keyinchalik turk tilining ustunligini qabul qilib, asarlarini turkiy tilda yoza boshlaydi. U o'zining turkiy tilda yozilgan asarlari bilan qadimiy turk madaniyati uchun ulkan meros qoldirgan. Uning asarlari tili soddalik va jiddiylikka asoslangan bo'lib, kitobxonni osongina o'ziga rom eta oladi. Navoiy davlat arbobi sifatida musiqa, me'morchilik, xattotlik va rassomlik kabi sohalarga ham qiziqardi. Mutaffakkir asarlarida uning serqirra shaxs ekanligini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, u umri davomida amalga oshirgan ishlari Hirot shahrining ilm-fan va ma'daniyat markazi sifatida yuksalishiga asos bo'ldi.

² N.Oblomurodov, A.Hazratqulov, F.Tolipov, N.Tursunov „O'zbekiston tarixi“. Toshkent – 2011.147-b

³

Barchamizga ma'lumki, sharq tarixnavisligi o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lib, o'zgacha tajriba va an'analar asosida rivojlangan. Turkiy tilda yaratilgan tarixiy nasrning hozir bizga ma'lum, qo'limizda mavjud bo'lgan ilk namunalari buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy qalamiga mansub «Tarixi muluki Ajam», «Tarixi anbiyo va hukamo» asarlaridir. Shuni ta'kidlash joizki, tarixiy nasrimizning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'zbek adabiyotining taraqqiyotidan ajratib bo'lmaydi. Shu ma'noda Alisher Navoiyning tarixiy asarlarining yaratilishi ham XV asrda o'zbek adabiyotida yuz bergan yuksalish, xususan, o'zbek nasridagi jonlanish, uning taraqqiy topishi bilan bog'liq bo'lib, ana shu jarayon tomonidan taqozo etilgan edi. U o'zbekcha she'rlariga Navoiy, forscha she'rlariga Foni taxallusini qo'llagan. U Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiydan keyin ilk bor turkiy tilda «Xamsa» yaratdi. U fors va turkiy tilni solishtirib «Muhokamat ul-lug'atayn» asarini yozgan va turkiy til obro'sini ko'targan. U 16 ta janrda ijod qilgan. Alisher Navoiy buyuk shoirgina bo'lib qolmasdan, davlat arbobi ham bo'lgan.

Xulosa

Navoiyga nisbat berilgan ayrim asarlar bugungi kungacha yetib kelmaganmi, u turli mavzularda asarlar yozganmi, buni bilmaymiz. Bugungi kunda uning adabiyot va tilga oid asarlari haqida izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, Navoiyning tarixiy shaxsi bo'sh qolgan. Umid qilamizki, muttasil davlat ishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan Navoiyning tarixiy asarlari ham davr tuzilishi haqida bizga yo'l-yo'riq ko'rsatishda muhim va bu jihat tezroq tadqiqotga tortiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. qomusiy lug'at / Maqola muallifi E.Ochilov. T.: "SHARQ" NMAK, 2016.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: "Sharq" NMAK, 2002.
3. Alisher Navoiyning muammo janridagi turkigo'y xalafi / Nashrga tayèrovchi J.Jo'raev. T.: Fan, 2009.
4. Alisher Navoiy. Majolisu-n-nafois, MAT. 13-jild / Nashrga tayèrovchi S.G'anieva. T.: Fan, 1997.
5. R.Murtazayeva „O'zbekiston tarixi''. Toshkent – 2005.238-b
6. N.Oblomurodov,A.Hazratqulov,F.Tolipov, N.Tursunov „O'zbekiston tarixi''. Toshkent – 2011.147-b